**Abstract.** This article examines ways to improve the economic efficiency of the Tashkent Metro and expand its revenue base by drawing on the experience of international metro operators. The study aims to develop an organizational and economic mechanism that integrates fare and non-fare revenue sources and gradually reduces the need for public subsidies while maintaining the social affordability of metro services. Comparative, systemic, institutional, and content analysis methods were applied to examine Hong Kong MTR’s “Rail + Property” model, Tokyo Metro’s distance-based fare policy, the commercialization of station areas, and transit-oriented development practices. The findings demonstrate the feasibility of introducing an integrated mechanism for the Tashkent Metro that includes differentiated fares, travel passes, targeted concessions, advertising and vending machines, the Park & Ride system, revenues derived from real estate and increases in land value, digital management, and cost control based on key performance indicators (KPIs). The author proposes implementing this mechanism in three stages and evaluating its effectiveness through indicators such as the farebox recovery ratio, operating cost per passenger, the share of non-fare revenue, and the subsidy burden.

**Keywords:** metro, operational efficiency, fare policy, differentiated fares, non-fare revenue, Rail + Property, transit-oriented development, land value capture, Park & Ride, digital management.

**Аннотация.** В статье исследуются вопросы повышения экономической эффективности деятельности Ташкентского метрополитена и расширения его доходной базы на основе опыта зарубежных операторов метро. Цель исследования заключается в разработке организационно-экономического механизма, объединяющего тарифные и нетарифные источники доходов и способствующего поэтапному снижению потребности в государственных субсидиях при сохранении социальной доступности услуг метрополитена. В исследовании применены сравнительный, системный,

институциональный методы и контент-анализ. Рассмотрены модель «Rail + Property» компании MTR Гонконга, тарифная политика Tokyo Metro, основанная на дальности поездки, коммерциализация станционных пространств и практика транзитно-ориентированного развития. Результаты исследования подтверждают целесообразность внедрения для Ташкентского метрополитена интегрированного механизма, включающего дифференцированные тарифы, проездные абонементы, адресные льготы, рекламу и торговые автоматы, систему Park & Ride, получение доходов от недвижимости и прироста стоимости земли, цифровое управление, а также контроль затрат на основе ключевых показателей эффективности (KPI). Автором предложены трёхэтапная реализация данного механизма и оценка его эффективности с помощью таких показателей, как коэффициент покрытия операционных расходов тарифными доходами (Farebox Recovery Ratio), операционные затраты на одного пассажира, доля нетарифных доходов и субсидийная нагрузка.

**Ключевые слова:** метрополитен, операционная эффективность, тарифная политика, дифференцированные тарифы, нетарифные доходы, Rail + Property, транзитно-ориентированное развитие, использование прироста стоимости земли, Park & Ride, цифровое управление.

## KIRISH

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5260-son qaroriga asosan Toshkent metropoliteni infratuzilmasini rivojlantirish borasida qoʻshimcha yerosti va yerusti metro yoʻnalishlari hamda metropoliten bekatlari barpo etildi [1].

Soʻnggi yillarda Yunusobod yoʻnalishida uzunligi 2,9 km boʻlgan yerosti metropoliten yoʻnalishining 2 ta bekati, Sergeli yerusti metropoliten yoʻnalishining 6,2 km uzunlikdagi 5 ta bekati hamda Yerusti halqa metropoliten yoʻnalishining I va II bosqichlari — 23,89 km uzunlikdagi 14 ta bekatdan iborat boʻlgan qismi foydalanishga topshirildi.

2021–2025-yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida metropoliten yoʻnalishining umumiy uzunligi 38 km dan 71,24 km ga, bekatlar soni 29 tadan 50 taga yetkazildi. Toshkent metropolitenida yoʻlovchilar tashish quvvati 2021-yilga nisbatan uch baravar oshib, kunlik yoʻlovchi tashish hajmi 360 ming yoʻlovchidan 1 million nafarga yetkazildi [3].

Tashkiliy-huquqiy islohotlar doirasida “Toshkent metropoliteni” davlat unitar korxonasi aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil etildi.

Yirik shaharlarda metropoliten aholining harakatchanligini ta’minlash, avtomobil yoʻllaridagi tirbandlikni kamaytirish, vaqt va ekologik xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiluvchi strategik infratuzilma hisoblanadi. Biroq metro tarmogʻini qurish va ekspluatatsiya qilish katta kapital va joriy xarajatlarni talab etadi. Shu sababli tariflarning ijtimoiy maqbul darajada saqlanishi bilan moliyaviy barqarorlikni ta’minlash oʻrtasida muvozanat topish transport siyosatidagi asosiy masalalardan biri boʻlib qolmoqda.

Oʻzbekistonda Toshkent metropoliteni tarmogʻini kengaytirish va boshqaruvini modernizatsiya qilish boʻyicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5260-son qaror metropoliten faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish choralarini belgilagan [1]. 2025-yil 4-dekabrdagi PQ-368-son qaror Toshkent shahri transport tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish maqsadli koʻrsatkichlarini tasdiqlagan [2]. Tashkiliy-huquqiy islohotlar doirasida korxona aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil etilgan boʻlsa, 2026-yil 15-maydagi PQ-191-son qarorda uni transformatsiya qilish, zamonaviy korporativ boshqaruvni joriy etish, moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritish, yangi tarif tizimini shakllantirish hamda qoʻshimcha daromad manbalarini rivojlantirish vazifalari belgilangan [4].

Toshkent metropolitenida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatish sifati va xavfsizligini hamda metropoliten infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, metropoliten faoliyatini takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida transport tizimi boshqaruvini takomillashtirish hamda tirbandliklarning oldini olishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2025-yil 4-dekabrdagi PQ-368-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Toshkent shahri transport tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning maqsadli koʻrsatkichlari belgilangan [2].

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2026-yil 15-maydagi PQ-191-son qaroriga asosan, 2030-yilgacha metropolitenda yoʻlovchi tashishni rivojlantirishning asosiy maqsadlari va ustuvor vazifalari etib

metropolitenda tashiladigan kunlik yo‘lovchilar sonini 1,8 million nafarga, bekatlar sonini 79 taga va liniyalar uzunligini 103 km ga yetkazish ko‘zda tutilgan [4].

Ushbu qarorning 1-ilovasida “Toshkent metropoliteni” AJni transformatsiya qilish, zamonaviy boshqaruv mexanizmini joriy etish, yo‘lovchi tashish va poyezdlar harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

Toshkent shahrining bosh rejasi va rivojlanish dasturiga muvofiq “Ming o‘rik — Chilonzor buyum bozori” metropoliten liniyasini barpo etish bo‘yicha loyihaoldi baholash hujjatlarini ishlab chiqish. Bunda loyiha quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

a) birinchi bosqichda — “Ming o‘rik — Janubiy” yo‘nalishi (6,5 km);

b) ikkinchi bosqichda — “Janubiy vokzal — Chilonzor buyum bozori” yo‘nalishi (5,5 km) [4].

Shu bilan birga, liniyalar va bekatlar sonining ko‘payishi ekspluatatsiya, energiya, ta’mirlash, harakat xavfsizligi va xodimlar bilan bog‘liq xarajatlarning o‘sishiga olib keladi. Yo‘l haqi tushumlari va budjet mablag‘lari bilan bir qatorda qo‘shimcha daromad manbalarini rivojlantirish metropolitenning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xalqaro amaliyotda metro operatorlari masofaga, zonaga yoki vaqtga asoslangan tariflar, abonementlar, ko‘chmas mulk, reklama, savdo, stansiya hududlarini ijaraga berish, Park & Ride va yer qiymati o‘sishini qoplash kabi vositalardan kompleks foydalanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi xorijiy tajribani tizimlashtirish va Toshkent metropoliteni uchun operatsion samaradorlik hamda daromadlarni oshirishning integratsiyalashgan mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: metropoliten moliyalashtirish modellarini qiyosiy tahlil qilish; tarif va notarif daromad vositalarining afzallik hamda cheklovlarini aniqlash; Toshkent sharoitiga mos institutsional va iqtisodiy takliflarni shakllantirish; natijalarni baholash uchun KPI tizimini taklif etishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jamoat transportini moliyalashtirishga doir ilmiy adabiyotlarda tarif daromadlari bilan bir qatorda yer va ko‘chmas mulk qiymati o‘sishidan foydalanish muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatiladi. Cervero va Murakami Gonkongda temir yo‘l hamda ko‘chmas mulkni birgalikda rivojlantirish modeli transport infratuzilmasi bilan shaharsozlikni uyg‘unlashtirib, operatsion va kapital xarajatlarni qoplash imkonini berishini ta’kidlaydi [5].

Suzuki va hammualliflar transportga yo‘naltirilgan rivojlanish doirasida yer qiymatini qoplash mexanizmlarini davlat va xususiy sektor o‘rtasida qo‘shilgan qiymatni taqsimlash vositasi sifatida asoslaydi [6]. Bu yondashuv metro bekatlari atrofidagi yer uchastkalarini rejalashtirish, ijara huquqi, rivojlantirish loyihasi (development) to‘lovlari va qo‘shma loyihalar orqali infratuzilma moliyasini diversifikatsiya qilishga imkon beradi.

MTR Corporationning rasmiy materiallarida «Rail + Property» modeli ko‘chmas mulkdan olinadigan qiymatni yangi temir yo‘l infratuzilmasiga qayta investitsiya qilish va budjet xarajatlarini kamaytirish vositasi sifatida tavsiflanadi [7; 8]. Tokio Metroning 2025-yilgi integratsiyalashgan hisoboti esa transport biznesi bilan chakana savdo, ko‘chmas mulk va boshqa xizmatlarni birlashtirish, raqamli texnologiyalar hamda xarajatlar samaradorligini oshirishga ustuvorlik berilganini ko‘rsatadi [9].

Ushbu tadqiqotlardan kelib chiqadigan umumiy xulosa shundaki, metropoliten moliyaviy barqarorligining asosi bitta daromad manbai emas, balki tarif siyosati, yo‘lovchi oqimi, operatsion samaradorlik, ko‘chmas mulk va stansiya tijoratini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi kompleks yondashuvdir. Biroq mazkur vositalarni Toshkent sharoitiga joriy etishda aholi daromadlari, shaharsozlik huquqi, yer munosabatlari, raqamli to‘lov infratuzilmasi va korporativ boshqaruv darajasini hisobga olish zarur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sifat va qiyosiy tahlilga asoslangan metodologik yondashuv qo‘llanildi. Birlamchi institutsional manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, MTR Corporation va Tokio Metroning rasmiy hisobotlari, shuningdek, Jahon bankining transportga yo‘naltirilgan rivojlanish va yer qiymatini qoplashga oid nashrlari o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil obyekti sifatida Gonkong va Tokio metro tizimlari tanlandi. Tanlov mezonlari: yuqori yo‘lovchi oqimi; masofaga asoslangan tarif; notarif daromadlarni rivojlantirish; ko‘chmas mulk va stansiya atrofi hududlarini tijoratlashtirish; korporativ hisobdorlik va ochiq moliyaviy hisobot mavjudligi.

Tahlil to‘rt mezon bo‘yicha amalga oshirildi: 1) tarif modeli; 2) notarif daromadlar tarkibi; 3) aktiv va yer resurslaridan foydalanish; 4) boshqaruv va samaradorlikni baholash. Toshkent metropoliteni uchun takliflar

institutsional moslik, ijtimoiy maqbullik, moliyaviy ta'sir va amalga oshirish imkoniyati mezonlari asosida shakllantirildi.

Samaradorlikni baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar taklif etiladi: Farebox Recovery Ratio = tarif tushumlari / operatsion xarajatlar × 100; notarif daromadlar ulushi = notarif tushumlar / jami operatsion daromad × 100; bir yo'lovchiga operatsion xarajat = operatsion xarajatlar / tashilgan yo'lovchilar soni; subsidiya yuki = budjetdan olingan mablag'lar / jami xarajatlar × 100.

"Toshkent metropoliteni" AJni moliyaviy sog'lomlashtirish doirasida metropolitenda reklama va media faoliyatini rivojlantirish, platformalar hamda vagonlarda raqamli ekranlar o'rnatish, reklama maydonlarini xususiy media kompaniyalariga ochiq auksion orqali ijaraga berish nazarda tutilgan. Mazkur faoliyatdan olinadigan ijara tushumlarini "Toshkent metropoliteni" AJ tasarrufida qoldirish va metropoliten infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirish belgilangan.

Shuningdek, metro bekatlariga kirish joylari va bekatlararo o'tish yo'laklarida yo'lovchilar xavfsizligi talablariga rioya etgan holda savdo avtomatlari hamda kichik ko'chma savdo obyektlarini joylashtirish rejalashtirilgan. Ushbu obyektlarni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqini ochiq auksion savdolari orqali taqdim etish ko'zda tutilgan.

Metro stansiyalari yaqinida avtoturargohlar tashkil etish asosida "Park & Ride" tizimini joriy etish ham nazarda tutilgan. Mazkur tizim doirasida avtoturargohdan foydalanuvchilarga yo'l chiptalari bo'yicha chegirmalar berish, avtoturargoh to'lovlarini metro chiptasi bilan integratsiyalash hamda avtomobildan jamoat transportiga o'tishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlarga metropoliten tunnellari va bekatlarida xavfsizlik talablariga muvofiq faoliyat turlarini ijara asosida amalga oshirish imkoniyatini yaratish, shuningdek, metropolitenga tegishli bo'sh bino va xonalarni kovorking markazlari hamda kichik ofislar sifatida foydalanish uchun auksion orqali ijaraga berish belgilangan [4].

Bugungi kunda dunyoning 213 ta shahrida metro tizimi mavjud. Ushbu tizimlar 63 ta mamlakatda joylashgan bo'lib, jami 949 ta metro yo'nalishini qamrab oladi [22]. Metropolitenlarda yo'l haqi to'lash tizimlari quyidagi shakllarda tashkil etilgan:

Yagona tarif tizimi (Nyu-York va Toshkent metropolitenlari) — safar masofasidan qat'i nazar, bir xil miqdorda yo'l haqi undiriladi.

Masofaga asoslangan tarif tizimi (Tokio, Singapur va Gonkong metropolitenlari) — yo'l haqi bosib o'tilgan masofaga qarab belgilanadi.

Zonali tarif tizimi (London metropoliteni, Berlin jamoat transporti tizimi va Stokgolm metropoliteni) — yo'l haqi yo'lovchi kesib o'tgan zonalar soniga muvofiq hisoblanadi.

Vaqtga asoslangan tarif tizimi (Praga, Vena va Budapesht jamoat transporti tizimlari) — yo'l chiptasi muayyan vaqt oralig'ida transportdan foydalanish huquqini beradi.

Kombinatsiyalashgan tarif tizimi (London, Seul va Shanxay transport tizimlari) — yo'l haqini belgilashda masofa, zona, vaqt va boshqa mezonlar birgalikda hisobga olinadi [14–21].

Ko'plab metro tizimlarida ijtimoiy maqbul tariflarni saqlash va xizmatlar uzluksizligini ta'minlash maqsadida davlat moliyaviy ko'magidan foydalaniladi. Gonkong va Tokio tajribasi tarif tushumlari bilan qo'shimcha daromad manbalarini uyg'unlashtirish metropolitenning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qiyosiy tahlil Toshkent metropolitenida bir xil tarifdan bosqichma-bosqich differensial tarifga o'tish daromadni oshirish imkonini berishini ko'rsatadi. Biroq to'liq masofaviy tarifni bir vaqtda joriy etish qisqa masofaga qatnaydigan yo'lovchilar uchun ijobiy, uzoq masofada yashovchilar uchun esa qo'shimcha moliyaviy yuk keltirishi mumkin. Shu sababli bazaviy tarif, masofa koeffitsiyenti, kunlik maksimal to'lov chegarasi va maqsadli imtiyozlarni birlashtiruvchi gibrid model maqbul hisoblanadi.

Abonementlar tizimi yo'lovchilarning oldindan to'lovini ta'minlaydi, talabni prognozlashni yaxshilaydi va doimiy foydalanuvchilarning transport xarajatlarini barqarorlashtiradi. Kunlik, haftalik, oylik va korporativ abonementlar, shuningdek, talaba, pensioner va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun manzilli imtiyozlar joriy etilishi lozim.

1-jadval
Xorijiy tarif va biznes modellarining qiyosiy tahlili[1]

| Model/operator | Tarif xususiyati | Asosiy notarif manba | Afzallik | Toshkent uchun tatbiq |
|---|---|---|---|---|
| Gonkong MTR | Masofaga asoslangan | Ko'chmas mulk, development, ijara | Transport va shaharsozlik qiymatini birlashtiradi | Bekat atrofi hududlarida pilot TOD va qo'shma loyihalar |
| Tokio Metro | Masofaga asoslangan, elektron to'lov | Chakana savdo, reklama, ko'chmas mulk | Yuqori yo'lovchi oqimi va xarajat intizomi | Differensial tarif, raqamli analitika, stansiya tijorati |
| London/Berlin | Zonali va integratsiyalashgan | Reklama, ijara, integratsiyalashgan chipta | Transport turlari o'rtasida qulay almashuv | Metro–avtobus–avtoturargoh yagona tarif paketlari |
| Praga/Vena | Vaqtga asoslangan abonement | Uzoq muddatli abonementlar | Sodda va ijtimoiy tushunarli | Kunlik, haftalik va oylik abonementlar |

Notarif daromadlar yo'nalishida stansiya va vagonlarda raqamli reklama, savdo avtomatlari, savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari, telekommunikatsiya infratuzilmasi, nomlash huquqi, kovorking va xizmat ofislari, Park & Ride hamda logistika xizmatlari ustuvor ahamiyatga ega. Bunda har bir obyekt bo'yicha ochiq auksion, xavfsizlik standarti, yagona dizayn talablari va daromadning metropoliten rivojiga maqsadli yo'naltirilishi ta'minlanishi kerak.

Yer va ko'chmas mulk bilan bog'liq daromad manbalari yuqori iqtisodiy salohiyatga ega, biroq institutsional jihatdan murakkab vositadir. Bekat atrofidagi yerlarni metropoliten balansiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazishdan ko'ra, uzoq muddatli ijara, qo'shma rivojlantirish loyihalari, qurilish huquqi uchun to'lov, maxsus rivojlantirish zonalari va yer qiymati o'sishining bir qismini infratuzilmaga qaytarish kabi huquqiy mexanizmlarni joriy etish shaffoflikni oshirish va bozor tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritish imkonini beradi.

Operatsion samaradorlikni oshirish daromadlarni ko'paytirish bilan bir xil ahamiyatga ega. Energiya sarfini avtomatik hisobga olish, poyezdlar harakatini optimallashtirish, prognozli texnik xizmat ko'rsatish, aktivlarning hayot sikli bo'yicha hisob, elektron xaridlar va KPI asosida boshqaruv xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

2-jadval
Toshkent metropoliteni uchun taklif etilayotgan integratsiyalashgan mexanizm[2]

| Yo'nalish | Asosiy chora | Kutilayotgan natija | KPI |
|---|---|---|---|
| Tarif siyosati | Gibrid masofaviy tarif, to'lov chegarasi, abonementlar | Tarif tushumlarining barqaror o'sishi | Farebox recovery ratio |
| Ijtimoiy himoya | Imtiyozlarni naqd subsidiya shaklida emas, shaxsiy transport kartasi orqali taqdim etish | Manzillilik va budjet shaffofligi | Imtiyozli safarlar qiymati |
| Stansiya tijorati | Reklama, savdo avtomatlari, ijara, nomlash huquqi | Notarif daromadlar ulushining o'sishi | Notarif daromadlar ulushi |
| TOD va ko'chmas mulk | Pilot bekatlarda qo'shma rivojlantirish loyihalari va uzoq muddatli ijara | Kapital va ijara daromadlari | 1 m² ga daromad |
| Park & Ride | Metro chiptasi bilan integratsiyalashgan avtoturargoh | Avtomobildan jamoat transportiga o'tish | Avtoturargoh bandligi |
| Raqamli boshqaruv | ERP, avtomatik hisob, prognozli texnik xizmat ko'rsatish | Xarajat va to'xtashlarni kamaytirish | Bir yo'lovchiga xarajat; texnik tayyorlik |

Taklif etilayotgan mexanizmning asosiy afzalligi tarif islohotini alohida chora sifatida emas, balki notarif daromad, shaharsozlik, raqamlashtirish va xarajatlarni boshqarish bilan yagona tizim doirasida o'zaro uyg'unlashtirishdan iborat. Xorijiy tajriba ko'rsatishicha, tariflarni xizmat sifati va manzilli ijtimoiy himoya

1 Manba: muallif tomonidan [5–9; 14–15; 17–20] manbalar asosida tuzilgan.
2 *Manba: muallif ishlanmasi.*

choralari bilan uyg‘unlashtirmasdan o‘zgartirish jamoatchilik tomonidan qabul qilinishini murakkablashtirishi mumkin. Aksincha, yo‘lovchi uchun xizmat sifati, tezlik, ishonchlilik va qulaylik oshishi tarif o‘zgarishining qabul qilinishini yaxshilaydi.

Gonkong modelini Toshkent sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish maqsadga muvofiq emas, chunki yerga egalik, ko‘chmas mulkni rivojlantirish bozori, aholi zichligi va boshqaruv institutlari farq qiladi. Shuning uchun «Rail + Property» tamoyilini pilot tarzda, yuqori yo‘lovchi oqimiga ega va qayta rivojlantirish salohiyati mavjud 2–3 ta bekatda sinab ko‘rish maqsadga muvofiq. Pilot natijalari asosida huquqiy va moliyaviy model kengaytirilishi mumkin.

Tarif tizimini isloh qilishda ijtimoiy adolat muhim. Uzoq masofaga qatnaydigan, daromad imkoniyatlari nisbatan cheklangan yo‘lovchilar uchun masofaga asoslangan tarif qo‘shimcha transport xarajatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois kunlik to‘lov limiti, ijtimoiy karta, ish beruvchi tomonidan subsidiyalanadigan korporativ abonement va transport xarajatlarini manzilli kompensatsiya qilish mexanizmlari zarur.

Taklif etilayotgan soliq tushumlarining bir qismini metropolitenga ajratish g‘oyasi moliyaviy manba yaratishi mumkin, biroq u mahalliy budjet barqarorligi va soliq neytralligiga ta’sir qiladi. Shu sababli umumiy foyda solig‘idan doimiy ulush ajratishdan ko‘ra, maxsus rivojlantirish zonalarida infratuzilma tufayli yuzaga kelgan qo‘shimcha yer va mulk qiymatini aniqlash hamda uning bir qismini transport fondiga yo‘naltirish iqtisodiy jihatdan asosliroqdir.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, Toshkent metropolitenining batafsil segmentlangan moliyaviy ma’lumotlari ochiq manbalarda yetarli emas. Shu sababli takliflar asosan institutsional va qiyosiy tahlilga tayanadi. Keyingi tadqiqotlarda yo‘lovchilarning to‘lovga tayyorligi, tarif elastikligi, stansiyalar kesimida tijorat salohiyati va turli ssenariylarning moliyaviy modeli ekonometrik usullarda baholanishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Toshkent metropolitenining moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun tarif tushumlari, notarif daromadlar, aktivlar samaradorligi va davlatning ijtimoiy buyurtmasini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi zarur.

Birinchidan, 2027-yildan joriy etilishi nazarda tutilgan yangi yo‘l haqi tizimi gibrid masofaviy tarif, kunlik to‘lov limiti, kunlik-haftalik-oylik abonementlar va manzilli imtiyozlarni qamrab olishi kerak. Tarif qarorlari yo‘lovchi oqimi va to‘lovga tayyorlik bo‘yicha tadqiqotlar asosida qabul qilinishi lozim.

Ikkinchidan, reklama, savdo avtomatlari, ijara, nomlash huquqi, telekommunikatsiya, kovorking va Park & Ride xizmatlarini yagona tijorat portfeliga birlashtirish, obyektlarni ochiq elektron auksion orqali berish va daromadlarni rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, bekat atrofi hududlarida transportga yo‘naltirilgan rivojlanish va yer qiymatini qoplash mexanizmini pilot tarzda joriy etish lozim. Bunda uzoq muddatli ijara, qo‘shma rivojlantirish loyihalari, infratuzilma to‘lovi va maxsus rivojlantirish zonalari vositalaridan foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, ERP, xalqaro moliyaviy hisobot, tashqi audit, aktivlarning hayot sikli bo‘yicha boshqaruv, energiya monitoringi va prognozli texnik xizmat ko‘rsatish joriy etilib, rahbariyat KPIlari farebox recovery ratio, notarif daromadlar ulushi, bir yo‘lovchiga xarajat, poyezdlarning texnik tayyorligi va subsidiya yuki bilan bog‘lanishi zarur.

Beshinchidan, islohotlarni uch bosqichda amalga oshirish taklif etiladi: 2026–2027-yillarda raqamli ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yangi tarif tizimini sinov tariqasida joriy etish; 2027–2028-yillarda stansiya tijorati va Park & Ride’ni kengaytirish; 2028–2030-yillarda TOD va yer qiymatini qoplash mexanizmlarini keng miqyosda joriy etish. Mazkur yondashuv metropoliten daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, davlat moliyaviy ko‘magiga bo‘lgan ehtiyojni bosqichma-bosqich qisqartirish, hisobdorlikni kuchaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktabrdagi PQ-5260-son “Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — Lex.uz. https://lex.uz/docs/5680284
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-dekabrdagi PQ-368-son “Toshkent shahrida transport tizimi boshqaruvini takomillashtirish hamda tirbandliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — Lex.uz. https://lex.uz/ru/docs/-7883405

3. “Toshkent metropoliteni” AJ. Toshkent metropolitenining 2021–2025-yillardagi asosiy ishlab chiqarish va yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari: idoraviy statistik ma’lumotlar. — Toshkent, 2026.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-maydagi PQ-191-son “Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — Lex.uz. https://lex.uz/docs/-8209276
5. Cervero, R., & Murakami, J. (2009). Rail and property development in Hong Kong: Experiences and extensions. *Urban Studies, 46*(10), 2019–2043. DOI: 10.1177/0042098009339431.
6. Suzuki, H., Murakami, J., Hong, Y.-H., & Tamayose, B. (2015). *Financing Transit-Oriented Development with Land Values: Adapting Land Value Capture in Developing Countries*. Washington, DC: World Bank. DOI: 10.1596/978-1-4648-0149-5.
7. MTR Corporation Limited. (2026). *Annual Report 2025*. Hong Kong: MTR Corporation Limited.
8. MTR Corporation Limited. (2026). *Financial Sustainability: Rail plus Property Model*. MTR Corporation rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
9. Tokyo Metro Co., Ltd. (2025). *Tokyo Metro Group Integrated Report 2025*. Tokyo: Tokyo Metro Co., Ltd.
10. Tokyo Metro Co., Ltd. (2025). *Consolidated Financial Statements for the Year Ended March 31, 2025*. Tokyo: Tokyo Metro Co., Ltd.
11. Ardila-Gomez, A., & Ortegon-Sanchez, A. (2016). *Sustainable Urban Transport Financing from the Sidewalk to the Subway: Capital, Operations, and Maintenance Financing*. Washington, DC: World Bank.
12. Flyvbjerg, B. (2007). Cost overruns and demand shortfalls in urban rail and other infrastructure. *Transportation Planning and Technology, 30*(1), 9–30. DOI: 10.1080/03081060701207938.
13. Cervero, R., & Murakami, J. (2008). *Rail + Property Development: A Model of Sustainable Transit Finance and Urbanism*. Working Paper UCB-ITS-VWP-2008-5. Berkeley, CA: University of California, Berkeley, Center for Future Urban Transport.
14. Tokyo Metro Co., Ltd. (2026). *Local Tickets: Fares*. Tokyo Metro rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
15. MTR Corporation Limited. (2026). *Regular Tickets*. MTR Corporation rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
16. Public Transport Council. (2026). *Distance Fares and Transfer Rules*. Singapore Public Transport Council rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
17. Transport for London. (2026). *Tube and Rail Fares*. Transport for London rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
18. Verkehrsverbund Berlin-Brandenburg. (2026). *Tickets and Subscriptions*. VBB rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
19. Prague Public Transit Company. (2026). *Fare Pricelist*. DPP rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
20. Wiener Linien. (2026). *Tickets*. Wiener Linien rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
21. Metropolitan Transportation Authority. (2026). *Subway and Bus Fares*. MTA rasmiy sayti. Murojaat sanasi: 14.07.2026.
22. International Association of Public Transport — UITP. (2025). *Global Metro Figures 2024*. Brussels: UITP.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/6**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz